

ANALYSIS OF PHRASES EXPRESSING EMOTIONAL-EXPRESSIVE ATTITUDE IN THE UZBEK LANGUAGE

Nilufar Toshpo‘latova

O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

E-mail: nilufar.toshpolatova@mail.ru

ABSTRACT

Phraseologisms are figurative language units. Therefore, we use them widely to make our speech impressive and attractive. Using idioms, negative such as cursing, hatred, disgust, insults, cursing; it is possible to express positive additional meaning subtleties such as caressing, humor, encouragement. The main part of phraseologisms serves a certain stylistic purpose in speech - expressiveness. Therefore, phraseologisms are an important language unit that is used in artistic text to fully reveal the image, character, character, and to describe events and situations figuratively and exaggerate.

The article describes the stages of learning phraseology and the use of phraseology in fiction with the help of linguistic analysis.

Keywords: linguistics, phraseology, psycholinguistics, artistic text, emotional-expressive.

АНАЛИЗ СЛОВСОЧЕТАНИЙ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЭМОЦИОНАЛЬНО- ЭКСПРЕССИВНОЕ ОТНОШЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Фразеологизмы являются образными языковыми единицами. Поэтому мы широко используем их, чтобы сделать нашу речь впечатляющей и привлекательной. Использование идиом отрицательных, таких как ругань, ненависть, отвращение, оскорбления, ругань; можно выразить положительные дополнительные смысловые тонкости, такие как ласка, юмор, поощрение. Основная часть фразеологизмов служит определенной стилистической цели в речи - выразительности. Поэтому фразеологизмы являются важной языковой единицей, которая используется в художественном тексте для полного раскрытия образа, характера, характера, для описания событий и ситуаций образно и преувеличенно.

В статье описаны этапы изучения фразеологии и использования фразеологии в художественной литературе с помощью лингвистического анализа.

Ключевые слова: языкознание, фразеология, психолингвистика, художественный текст, эмоционально-экспрессивные.

O‘ZBEK TILIDAGI EMOTSIONAL-EKSPRESSIV MUNOSABAT IFODA ETUVCHI FRAZEMALAR TAHLILI

ANNOTATSIYA

Frazeologizmlar obrazli til birliklari hisoblanadi. Shu bois, nutqimizni ta’sirchan va ko’rkam qilish uchun ulardan keng foydalanamiz. Frazemalar yordamida kesatq, nafrat, jirkanish, haqarot, qarg’ish kabi salbiy; erkalash, hazil, rag’batlantirish kabi ijobiy qo’shimcha ma’no nozikliklarini ifoda etish mumkin. Frazeologizmlarning asosiy qismi nutqda ma’lum uslubiy maqsad - ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu bois, frazeologizmlar badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini to’la ochishda, voqea-hodisa, holatlarini obrazli, bo’rttirib tasvirlashda qo’llanadigan muhim til birligi hisoblanadi.

Maqolada frazeologizmlarning o’rganish bosqichlari hamda badiiy adabiyotda frazeologizmlarning qo’llanishi lingvistik tahlillar yordamida yoritiladi.

Kalit so’zlar: lingvistika, frazeologiya, psixolingvistika, badiiy matn, emotsional-eksprissiv.

KIRISH

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko’rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma’noviy tabiatga ega bo’lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi[1]: arpasini xom o’rdi, sirkasi suv ko’tarmaydi va h.k. Ma’lumki, frazeologizm deganda, ko’chma ma’no anglatadigan, ibora yoki turg’un so’z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so’z komponentlariga xos leksik ma’nolarning oddiy yig’indisiga teng bo’lmaydi, iboraning ma’nosi umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo’ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Frazeologiya nazariyasining ilk tadqiqotchisi Sharl Balli[2] hisoblanadi. U o’zining “Fransuz stilistikasi” nomli asariga so’z birlashmalari, ya’ni frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan edi. U frazeologik birlashmalarning tashqi (ishonchsiz yoki shunchaki aldamchi) va ichki (asl baho, belgi) xususiyatlarini bir-biridan farqlagan edi. Uning ta’limotiga ko’ra, bunday birlashmalarning struktural xususiyatlari tashqi belgilari, semantik tabiati esa uning ichki belgilari sanaladi[3]. Frazeologiya, asosan, frazeologik birlashmalarning semantik tabiatini, ichki belgilarini o’rganish bilan shug’ullanishi lozim. F. de Sossyur esa “Umumiy tilshunoslik kursi” asarida sintagma, uning belgilari haqida so’z yuritar ekan, tilda shunday tayyor birikmalar borki, ularning uzual xarakteri ma’nosi va

sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni tayyorgarliksiz qo‘llash mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an’anaga ko‘ra qo‘llaniladi[1], - degan edi. Frazelogizmlarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma’no guruhlariga ko‘ra tasniflaydi[4]. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma’nolarini aniqlagan. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova, K.Bozorboyev, I.Qo‘chqortoev, A.Mamatov, A.Rafiev, B.Yo‘ldoshev, Q.Hakimov singari olimlar ishlarida keng o‘rganilgan. Mazkur ishlarda frazeologizm masalalari yetarlicha tahlil qilinib, so‘zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o‘rganilganligi diqqatga sazovor.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnlarda frazeologizmlarning qo‘llanilishiga doir mukammal ilmiy-nazariy tadqiqot ishi bo‘lmada, ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga jiddiy to‘xtalgan. Ana shunday tadqiqotlardan biri B.Yo‘ldoshevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur ishda badiiy matnlarda keltirilgan turli frazeologizmlarning funksional-uslubiy jihatlariga asosiy e’tiborini qaratadi. Frazelogizmlarning ma’nosida ikkita qism mavjud:

- 1) ekspressiv baho bo‘yog‘i;
- 2) funksional - uslubiy bo‘yoq[4].

Frazelogizmlarning ekspressiv baho bo‘yog‘ida ma’no nozikliklari yuklanishini alohida ta’kidlaydi. Bu xususiyat tarkibida emotsionallik va ekspressivlik asosiy omil ekanligini, emotsionallik frazeologizmlarning turli xil his - tuyg‘ularini, shaxs va predmetlarga nisbatan sub’ektiv munosabatlarni ifodalasa, ekspressivlik nutqning ta’sirchanlik xususiyati hisoblanishini izohlab o‘tgan. Bundan tashqari olim o‘z ishida badiiy matnlarda frazeologizmlardan uslubiy maqsadda ijodiy foydalanish usullari to‘g‘risida ham to‘xtalgan. Bunda individual- muallif o‘z usullari bo‘yicha frazeologizmlardan foydalanganda, bu birliklarning o‘zgarishiga sabab bo‘lishini ham tahlil etadi[1].

Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnlarda tadqiq va tahlil etilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu o‘rinda M.Yo‘ldoshev tomonidan e’lon qilingan “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” o‘quv qo‘llanmasi va “Badiiy matnning lisoniy tahlili” nomli metodik qo‘llanmalari ham diqqatga sazovordir. Mazkur asarlarda ham frazeologizmlarning qo‘llanilishi masalasiga nazar

tashlangan. Ayniqsa bunda badiiy asarlarda faol qoʻllanishda boʻladigan frazeologik maʼnodoshlik masalasi yoritib berilgan[5].

Shavkat Rahmatullayevning Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati frazeologizmlarning tadqiq etishda asosiy manba hisoblanadi. Tadqiqot ishimizning asosiy mavzusi hisoblangan “Feʼl-atvor” semali frazemalarning ushbu lugʻatdan foydalanib tahlil qilishimiz mumkin.

Feʼl-atvor, xarakter – shaxsning atrof muhitga va oʻz-oʻziga munosabatida namoyon boʻladigan individual xususiyat. Har bir kishining feʼl-atvorida uning bosib oʻtgan hayot yoʻli aks etadi. Kishining feʼl-atvorini bilib, maʼlum vaziyatda oʻzini qanday tutishini oldindan koʻrish va uning xatti-harakatini toʻgʻri yoʻnaltirish mumkin.

Feʼl-atvor xususiyatlarining 4 ta tizimi bor:

1) ayrim insonga, guruhga, jamoaga nisbatan munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik qilish, talabchanlik va boshqalar);

2) mehnat faoliyatiga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi xususiyatlar (mehnatsevarlik, dangasalik, mehnatga masʼuliyat yoki masʼuliyatsizlik bilan munosabatda boʻlish va boshqalar);

3) narsa va ashyolarga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalarni ayash yoki ularga ehtiyotsizlik bilan yondashish va boshqalar);

4) insonning oʻz-oʻziga nisbatan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzatnafslilik, shuhratparastlik, dimogʻdorlik, kamtarlik va boshqalar)[6].

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Feʼl-atvor frazemalarini ifodalovchi birikmalar: koʻngli boʻsh, koʻngliga nima kelsa, shuni qilmoq, koʻnglida kiri yoʻq. koʻngli keng, koʻngli toza, koʻngli yumshoq, koʻngli oq, koʻngli qattiq, koʻngli qora, bagʻri tosh, koʻnglini topmoq, koʻngliga qaramoq, koʻngliga oʻtirmoq, koʻngliga yaqin olmoq, koʻnglini ovlamoq, koʻnglini ochmoq, dami ichida, damini ichiga yutmoq, dami chiqmadi, dimogʻi baland, jahli tez va boshqalar.

Frazeologik birliklarning semantik-funksional va uslubiy xossalari bilan maxsus shugʻullangan A.Mamatov ularni quyidagi guruhlarga ajratadi[7]:

1. Quvonch, shodlik, baxt va shu kabi his–hayajonlarni ifodalovchi frazeologik birliklar: doʻppisini osmonga otmoq, yuragi qinidan chiqmoq, quvonchdan yuragi yorilay demoq koʻzi porlamoq, ogʻzi qulogʻida, qotib qolmoq.

2.Hayratlanish, ajablanishni ifodalovchi frazeologizmlar: yoqasini ushlamoq, hang-mang boʻlib qolmoq, ogʻzi lang ochilmoq, toshdek qotmoq.

3.Gʻam–alam, anduh, xafagarchilikni ifodalovchi frazeologizmlar: dili siyoh boʻlmoq, yuragi qon boʻlmoq, oʻpkasi toʻlmoq.

4. Qo'rquv, hadik va dahshatni ifodalovchi frazeologizmlar: yuragi shuv etmoq, yuragi orqaga tortmoq, boshidan kapalagi uchib ketmoq.

5. Hasad, ko'rolmaslik va shu kabilarni ifodalovchi frazeologizmlar: otgani o'qi, ko'rgani ko'zi yo'q bo'lmoq, mozoriga g'isht tashimoq, tagiga suv quymoq.

6. Nomus, uyatni ifodalovchi frazeologizmlar: boshini xam qilmoq, uyatdan yerga kirmoq, loladek qizarib ketmoq.

7. Bezovtalik, notinchlik, besaranjomlikni ifodalovchi frazeologizmlar: oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilamoq, o'zini qayerga qo'yishni bilolmay qolmoq, ko'zi olazarak bo'lmoq.

8. Masxara, boshqalarni mensimaslik, izzat-nafsiga tegishni ifodalovchi frazeologizmlar: mayna qilmoq, oyoq osti qilmoq, bir pulga olmaslik.

9. Do'q-po'pisa va hokazolarni ifodalovchi frazeologizmlar: onasini ko'rsatmoq, adabini berib qo'ymoq, kavushini to'g'rilamoq.

Demak, frazeologik birliklarda insonlarning turli xil his-hayajonlarini ifodalovchi holatlar o'z aksini topgan bo'ladi.

O'zbek tilining frazeologik lug'atida "fe'l-atvor" semali frazemalar tahlili.

Qo'y og'zidan cho'p olmaslik. Personaj fe'l-atvorini ochishda qo'llaniladi. Ma'nosi: nihoyat darajada beozor, mo'min[8].

- Senga qolsa, Vasilyevaning alibisi qo'lida! To'laganova **qo'y og'zidan cho'p olmagan** farishta [9].

Ha, shunaqangi dog'uli edi u, yiqiladigan joyiga oldindan ko'rpa to'shab qo'yar, ishigayam, so'zigayam hamisha birovlarini qalqon qilardi, o'zi **qo'y og'zidan cho'p olmagan**, buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydigan faqir. (A.Yo'ldoshev, Puankare).

Burnini suqmoq Sinonimi: a) bosh suqmoq; b) burnini tiqmoq; s) tumshug'ini tiqmoq (salbiy); d) chovlisini solmoq. Ma'nosi: hamma narsaga aralashmoq

Aytyapman-ku, burnini suqmagan joyi yo'q edi bu bolaning! [9]

Qanday surbetlik! Sen bilan hech kim gaplashmayapti. Xirapashshaga o'xshab **tumshug'ingi har bir gapga tiqasan**[10]!

Jahli burn(i)ning uchida turmoq. Sinonimi: jahli tez. Ma'nosi: arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq.

Voy-bo', **jahlingiz burningizning uchida turadi-ya!** (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi).

Boshqa bir kuni **jahli hamisha burnining uchida turadigan**, gaplashganda butun vujudi varrakdek titraydigan Barotvoyning hasratini tinglaymiz. (X.To'xtaboyev, Mo'ngli ko'zlar).

Qamchisidan qon tommoq. Jahldor.

Eshikni ochishingiz bilan peshanasiga ko'zmunchoq aralash kumush marjon taqilgan jiyron ot, egarda qiyshiq o'tirgan, chaqmoq telpak kiygan qamchisidan qon tomib turadigan Zakunchiga ko'zingiz tushadi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

Ishning ko'zini bilmoq. Ishning sirini, mohiyatini oson bajaradigan, ko'proq manfaatli bo'lish yo'lini biladigan.

Shodivoy deng, bir ko'zida sal aybi bo'lsayam xo'p **ishning ko'zini biladigan** odamda!.. (O'.Hoshimov, Ikki karra ikki-besh)

Bobom **ishning ko'zini biladi.** Xuddi sariyog' kesgandek, ketmonni avaylab tashlaydi. (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

Ko'ngli nozik. ko'ngli har narsani yoqtiravermaydigan, ko'tavermaydigan.

Ayol kishi bir beva qolganida, bir ko'zi yoriganida **ko'ngli nozik** bo'ladi deyishadi. Bir haftadan buyon dadasi bilan onasi, goho Lobar tug'ruqxonaga galma-galdan kelib-ketishar, ammo Mardon akasidan darak yo'q edi.(O'.Hoshimov, Bahor qaytmaydi)

Yosh bo'lsa ham, **ko'ngli nozik** bo'lsa ham har qalay yoningda tirik jon... (A.Muxtor, Chinor)

Bag'ri qon. kimning g'am-alamli, g'am-alamdan

Nizomjonning **bag'ri qon** bo'ldi. Boshini eggancha piq-piq yiglardi. (S.Ahmad, Ufq)

Tegirmonga tushsa, butun chiqadi. Ma'nosi: uddaburon, puxta.

Bizning o'g'il malades! Tegirmonga tushsa, butun chiqadi. (O'. Hoshimov, Ajdarning tavbasi)

Chumchuq "pir" etsa, yuragi "shir" etadi. Ma'nosi: qo'rqqoq, har narsa cho'chiydigan

Qosh-kiprigi doim chang. O'zi chumchuq "pir" etsa, yuragi "shir" etadigan bo'lsa, o'lgudek baqiroq, vahima. (A.Muxtor, Chinor)

Burnini ko'tarmoq. Gerdaymoq, kibrlanmoq. Kibrli insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Ular Yormatning ko'z oldida unga qarshi bir nima demasalar ham, orqavarotdan uni masxaralashar, hatto so'kishar edi: "Xo'jayinning laychasi-ku, **burnini bir qarich ko'targaniga** hayronmiz". (Oybek, Qutlug' qon)

Dunyoni suv bossa, to'pig'a chiqmaslik. Kimning o'taketgan beg'am, haddan tashqari beparvo. Variant: Dunyoni suv olib ketsa, to'pig'idan kelmaslik, dunyoni sel olsa, to'pig'iga chiqmaslik. O'xshash parvoyi falak.

Mening ensam qota boshladi. Bu yigitni juda ustamon. Gap chalg'itishga ustasi farang, **ilonning yog'ini yalagan** deb o'ylash mumkin edi. (O'.Umarbekov. Saylanma)

Bo'yin egmoq. Kim, kimga itoatkor bo'lmoq, bo'ysunmoq.

Otasi bu soʻzlari goʻyo uning istiqboli uchun yaxshi taʼlimotlar berar, goʻyo majburiyat ostida ota nasihatini quloqqa oladigʻandek **boʻyin egib** oʻlturar edi. (A.Qodiriy, Oʻtkan kunlar)

Ular ellik yil oʻtgach, bu unut va muztar goʻshaga birinchi bor qadam qoʻyishgan va tobud ortidan gunohkorona **boʻyin egib** borishardi. (Nazar Eshonqul, Qalb toʻzoni).

Dimogʻi shishmoq. Kimni nimadan kibrlanmoq, gerdaymoq.

Obbo! Rais boʻlib **dimogʻi shishib** koʻpti-ku! (S.Ahmad, Qadrdon dalalar)

Ayolining **dimogʻi shishib** hech kimni nazar-pisand qilamagan, hatto boylikni bunyod etgan eriga oʻshqiradigan va aql oʻrgatadigan boʻlib mensimagan. (Hamid Ziyoyev, Asarlar toʻplami)

Ichi qora. Yomon niyatli, boshqalarga yaxshilik ravo koʻrmaydigan. Variantlari: ichi qoralik; koʻngli qora. Antonimi: oq koʻngil – koʻngli oq; koʻngli toza.

- Qoʻlansa soʻzlik, ichi qoraroq bir yigit edi, — dedi Hasanali, bir oz borgʻach soʻradi.

- Otabekning ishini ogʻir, deb oʻylamassiz? (A.Qodiriy, Oʻtkan kunlar)

- Xoʻp, men har qanday jabr togʻini koʻtarmoqqa hozirmen, — dedi Navoiy keskin va dadil, -lekin **ichi qora** zotlar yaxshi bilsinlarki, men qayerda boʻlmayin, haqiqatni qoʻriqlarmen. (Oybek, Navoiy)

Ishi bitdi, eshagi loydan oʻtdi. Kimning. Maqsadi amalga oshgach, aloqa va muomilani yigʻishtiradigan.

Koʻz olmoq. Kim (oʻzining) nimadan yoki kimdan. Qarashni toʻxtatmoq [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS)

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar va ular bilan bogʻliq hodisalar, ularning maʼnaviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunozara boʻlib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega boʻlsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning koʻp asrlik turmush tarzi, madaniyati, maʼnaviyati, urf-odatlar va anʼanalarining badiiy asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, taʼsirchan boʻlishini taʼminlaydi. Frazemalarni struktur tadqiq etish tarixiy frazemalarning bugungi kundagi evolyutsiyasini aniqlash va oʻziga xosliklarni belgilashga yordam beradi. Bu esa til tarixi, tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, leksikografiya va frazeologiya sohalari uchun muhim ilmiy-nazariy maʼlumotlar berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент, 2010.
2. Йулдашев В. Стилистические особенности фразеологических синонимов в произведениях Саида Ахмада. Вопросы фразеологии (сборник научных статей). –Самарканд. Изд-во СамГУ. 1984, С-283
3. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол. фанл. докт.....дисс. автореф. – Тошкент, 2007
4. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol.fan. nom... diss.avtoref. – Toshkent, 2009
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.: 2007, – B. 65.
6. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирикмаларнинг асосий грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1955.
7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанл. докт... дисс. автореф. –Тошкент, 2000
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
9. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. Toshkent, 2015.–B. 211
10. O'tkir Hoshimov. Dunyoningishlari. Toshkent. Sharq. – 2016.-B. 95
11. Алмаматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. фанл. номз....дисс. автореф. Тошкент, 2008.
12. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики (модели лира в литературе). – М.: Тривола, 2000.
13. Farzad Sharifian. Cultural Conceptualisations and Language. Amsterdam, Philadelphia 2011.
14. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.